

## **TALABALARDA KREATIVLIK VA INNOVATSIYA**

*Abdullaeva Barno Sayfutdinovna  
P.f.d., professor, psixologiya fanlari doktori  
TDPI ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor*

Yangilanayotgan O‘zbekistonda turli sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jahon hamjamiyati nigohida yuksak baholanmoqda. Ayniqsa yosh avlodni tarbiyalash, ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va kadrlar tayyorlash borasida milliy modelning yaratilganligi xalqaro miqyosda tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda. Inkori qilib bo‘lmaydigan bir haqiqat borki, bu — ilmsiz, innovatsiyasiz hech bir sohada taraqqiyotga erishib bo‘lmazligi bilan bevosita bog‘liq. Bugun globallashtirish davrida ta’lim sohasini yanada rivojlantirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Bu borada kim kuchli bo‘lsa, marralar ham unga boqib ketaveradi.

So‘nggi uch yil davomida pedagogik ta’lim infratuzilmani yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish, tarbiya va o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirgan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash, pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish kabi yirik ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni bajarishga ustuvorlik berildi.

Oliy ta’lim tizimida sifat va samaradorlikni saqlab qolish, talabalar va professor-o‘qituvchilar muloqotidagi yaxlitlikni ta’minlash, ta’lim oluvchilarning ko‘p millatli ekanligi va har bir millat vakillari mentalitetining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish, ularning ma’naviy-ruhiy qiyofasini mustahkamlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonini muvofiqlashtirish bo‘yicha tezkor ishlar amalga oshirilmoqda.

Zero, ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o‘zgartirishga, insonning hayotda o‘z o‘rnini topishini tezlashtirishga, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga, insondagi mavjud salohiyatni to‘la ro‘yobga chiqarishga, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo‘lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Yana bir jihat, mamlakat kelajagi, barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, o‘z sohasining ustalari bo‘lgan insonlarga bog‘liq. Shu bois mamlakatimizda aynan ta’lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Boisi bugun qaysi sohani olmaylik, zamonaviy etuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erishish qiyin.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion hamda kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma’naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta’lim tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratdi.

Buni maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilgan ishlar bilan birga, oliy ta’limni rivojlantirish yo‘nalishida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Misol uchun, yurtimizda oxirgi

besh yil davomida 60 tadan ortiq yangi oliy ta’lim muassasalari tashkil etilib, ularning soni 141 taga etkazildi. Qabul kvotasi uch barobar oshirildi.

Endilikda bitiruvchi yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foiz edi. Bugunchi? Bugun bu ko’rsatkich keskin oshirildi. Yaqin kelgusida ushbu ko’rsatkichni 50 — 60 foizga etkazish mo’ljallanmoqda. Albatta, bu yutuqlarga erishishning tag-zamirida izchillik va qat’iyat bilan hayotga joriy etilgan Harakatlar strategiyasi doirasida ulkan ishlar natijasidir.

Mazkur islohotlar hali ko’zlangan cho’qqining bir qismi, xolos. Yangi O‘zbekistonning 2022 — 2026 yillarga mo’ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarda ham ta’lim sohasiga keng o‘rin berilgan.

Xususan, Taraqqiyot strategiyasida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga etkazish va ta’lim sifatini hamda kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022 yilda oshirish, joriy yilda yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 38 foizga etkazish maqsad qilingan. Bu orqali ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi yuzaga keladi, oliy ta’lim muassasalari talabdan kelib chiqib mutaxassis tayyorlaydi.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Shu bois, o‘quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish, ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilishga alohida e’tibor qaratilayotir. Birgina oliy ta’limga ajratiladigan davlat grantlari soni oshirilib, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar ko‘paytirilgani oliy ta’limga qamrab olish ko‘lamini yanada kengaytirdi.

Yaqin yillarga qadar oliygohlarga o‘qishga kirish juda qiyin edi. Kvotalar kam, qabul imtihonlarida turli muammolar bor edi. Prezidentimiz buni hisobga olgan yildan-yilga oliy ta’limga qabul kvotalarini oshirmoqda. Bu o‘z navbatida, yoshlarni bilimli, malakali, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar etib tayyorlash, ularning hayotda o‘z o‘rnini topishiga xizmat qilyapti.

Bu hali hammasi emas. 2026 yilda qabul ko’rsatkichini kamida 250 mingga etkazish, davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to‘lash, xodimlar soni, to‘lov-kontrakt miqdori va ta’lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo‘lga qo‘yish, davlat oliy ta’lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash nazarda tutilgan. Bu esa o‘qishni, ta’lim olib yurt taraqqiyotiga o‘z ulushini qo‘shishni maqsad qilgan shuncha yoshlar murod- maqsadiga etadi, degani.

Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash faqat shu bilan cheklanib qolmaydi. 2026 yilgacha nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga, 2022 yilda Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta’lim tashkilotini tashkil etish orqali ularning jami sonini 34 taga etkazish maqsad qilingani yoshlar kelajagini ta’minlashga qaratilgan ezgu tashabbusdir.

Agar nodavlat oliy ta’lim tashkiloti qancha ko‘paysa ular o‘rtasida sog‘lom raqobat yuzaga keladi. Son emas, sifatga e’tibor kuchayadi. Har bir oliy ta’lim muassasasi o‘z jamoasini ilmiy salohiyati yuqori professor-o‘qituvchilar bilan kengaytirishga harakat qiladi. Asosiysi, yoshlarning ta’lim olishga ishtiyoqi oshadi, ta’lim sifati yuksaladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim islohotlarning yana bir tub negizi qonunchilik normalarining takomillashib borayotgani bilan ham bog‘liq. Avvalo, tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz,

yangi ufqlarni ochib bermoqda. Negaki, unga muvofiq, ta’lim olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilindi, ta’lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo’shma fakultet hamda o’quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etilib, o’qituvchilarga mualliflik dasturi va o’qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o’qitish hamda tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni ta’lim yo‘nalishini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu hujjat O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qilayotir.

Faromn bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida nazarda tutilgan ustuvor vazifalar ijrosi haqiqiy ma’noda sohada tub o‘zgarishlar yasamoqda.

Xususan, oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish shular jumlasidandir.

Qolaversa, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish, oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta’minlash masalalari ham o‘z echimini bosqichma-bosqich topayotir.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasi ham vaqti bilan joriy etilyapti.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi “xab”ga aylantirish, oliy ta’limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta’lim hamda ilm-fan texnologiyalarini jalb etish, oliy ta’lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash ham asosiy vazifalarimizdan biri bo‘lib qolmoqda.

Bugun davlatimiz rahbari raisligida o‘tkazilayotgan vedeoselektor yig‘ilishlarida ta’limning ishlab chiqarish korxonalarini va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligini yo‘lga qo‘yish masalalari haqida ko‘p gapiradi. Bu bejiz emas. Ilf-fan va ishlab chiqarish o‘rtasida integratsiya bo‘lmasa kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun

infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash ham bugungi kun davlat siyosatiga mos keladi. Bu yo‘nalishdagi ishlar salmog‘i ham kam emas.

Birgina misol, 2021 yilda ehtiyojmand oilalarga mansub 2 mingdan ziyod qizlar oliygohlarga davlat granti asosida qabul qilindi, yana shuncha talaba qizlarga kontrakt pullari to‘lab berildi. Ayollar ta’limiga alohida e‘tibor berilayotgani tufayli o‘tgan yili oliy o‘quv yurtlariga qabul qilingan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etdi.

Albatta, yutuqlar o‘zimizniki. Ammo oldimizda turgan ustuvor vazifalar ham kam emas. Binobarin, bugun zamon shiddat bilan o‘zgarib, barcha sohalar qatori ta’lim tizimi oldiga ham o‘ta dolzarb va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda.

Jumladan, oliy ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash darajasini yanada oshirish kerak. To‘g‘ri, bu boradagi qilingan ishlarni e‘tirof etgan holda, bugungi axborot davrida mamlakatdagi barcha aholi punktlari va ta’lim muassasalariga zamonaviy optik tolali internet aloqa tizimini olib kirish hamda internet xizmatlari narxini pasaytirish hayotiy zaruratdir.

Yechimini kutayotgan masalalardan yana biri aksariyat bitiruvchilarning bilim va malakasi mehnat bozori talablariga javob bermaydi. Mahalliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyat va tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish darajasini yanada oshirish lozim. Qolaversa, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish ishlarini izchil davom ettirish ham muhim masala. Bu sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish imkonini beradi.

Umuman olganda, bugun qaysi sohada bo‘lmasin bitta maqsad bizni birlashtiradi. U ham bo‘lsa, Vatan taraqqiyoti va xalqimiz farovonligidir. Shunday ekan, oliy ta’lim tizimini har tomonlama rivojlantirish, kelajak uchun innovatsion kapital manbaini yaratish, yoshlarga puxta bilim berish, kasb-hunar o‘rgatish orqali bandligini ta’minlash barchamizning vazifamizdir.

Har qanday maqsad va islohotlar natijadorligiga ilm-fan bilan etib borilishi tufayli ilm bizga havodek zarur. Zero, kishi qalbining nuri ilm hamda ma’rifat bilan quvvat oladi. Ilm-fanning taraqqiyoti yoshlarga mukammal ta’lim berish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish orqali yuzaga keladi. Chunki insonning qadri ilm bilan yuksaladi. Ilmli kishi hodisalarga xolis baho beradi, talabchanlik va uddaburonlikni o‘rganadi. Muhimi, Vatanga munosib hissa qo‘shishga qodir bo‘ladi.